

## SO‘Z VA GAP KENGAYTIRUVCHILARNING MUVOFIQLASHUVI VA FARQLANISHI

*Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti  
2-kurs talabasi Toshtemirova Lola*

**Anotasiya:** Maqolada tilshunoslarimiz nazariyalaridagi ayrim tushunmovchilik va tafovutlar.

**Kalit so‘zlar:** Bosh bo‘lak, ikkinchi darajali bo‘lak, so‘z kengaytiruvchisi va gap kengaytiruvchilari.

Bilamizki, tilshunoslik tilning paydo bo‘lishi, rivojlanishi - tilning tasnifini va uni tahlil qilish usullarini o‘rganadigan fandır. Tilimizni tahlil qilishdagi to‘g‘rilik va aniqlik biz filologlar qolaversa, maktab o‘quvchilari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Men ushbu maqolada so‘z va gap kengaytiruvchilarning muvofiqlashuvi va farqlanishi haqidagi ba’zi fikrlarimni aytib o‘tmoqchiman.

Biz gap bo‘laklarini tilshunoslikning Sintaksis bo‘limida o‘rganamiz. Gap bo‘laklari 2ga bo‘linadi:

Bosh bo‘lak: Ega, kesim.

Ikkinchi darajali bo‘lak: aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.

Ra‘no Sayfullayevaning "O‘zbek adabiy tili" kitobida: "Nutqiy gaplardagi 2 hodisani farqlash kerak: 1) Gaplarni tashkil etuvchi so‘zlardagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog‘lanuvchi so‘z; 2) Gapda ishtirok etayotgan ma‘lum bir so‘zning ma‘naviy valentligini to‘ldirayotgan so‘z," - deya ta‘riflaydi. Shunga ko‘ra gap bo‘laklari so‘z kengaytiruvchisi va gap kengaytiruvchisi kabi turlarga bo‘linadi. Ega-gapning kimga yoki nimaga qarashli ekanligini anglatadi. Ega doimo to‘g‘ridan to‘g‘ri kesimga bog‘lanib, gap kengaytiruvchi bo‘lak hisoblanadi.

"Aniqlovchi ot bilan ifodalangan bo‘lak yoki bo‘laklarning, undalma yoki kirish birikmalarining kengaytiruvchisidir. U ot kesimga bog‘langanda, kesimlik shaklini talab qilmaydi. U so‘z kengaytiruvchisi sifatida gap tarkibida qatnashayotgan otlarning lug‘aviy valentligini to‘ldiradigan vosita sifatida u namoyon bo‘ladi" (R. Sayfullayeva)

Masalan: U chiroyli kitobni oldi.

Nilufar a‘lochi talaba.

Hol-gapning ikkinchi darajali bo‘laklaridan biri bo‘lib, ish-harakatning belgi sifatini uning bajarilish usulini, shu bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rin payt sabab maqsad kabi xususiyatlarni ko‘rsatadi. Misol uchun: Ular juda sekin yurishdi. Ko‘p o‘yla, oz so‘yla, kabi. Agarda hol ot kesimga bog‘lansa ham ot kesimning kesimlik shakllarini talab qiladi: "Men uyga kelganim uchun hursandman".

Shuni aytib o'tish kerakki, Ra'no Sayfullayevaning "O'zbek adabiy tili" kitobida: "So'z va gap kengaytiruvchilari bir birlariga aylanib turadigan hodisa. Masalan: "Kecha kelgan bolani tanimadim" gapida "kecha" so'zi "kelgan" so'zining kengaytiruvchisi. Lekin bola kecha keldi gapida u gap kengaytiruvchisi maqomini olgan"-deya ta'riflangan.

Lekin mening fikrimcha: Hol gapda kesimga bog'lanadi va u so'z kengaytiruvchisi bo'lolmaydi, faqatgina gap ichida o'zini kengaytirib keladi va faqat gap kengaytiruvchi vazifasida keladi. Yuqorida aytgan misolimizni esa :Kecha kelgan-aniloqlovchi ; bolani -to'ldiruvchi; tanimadim - kesim"-deb tahlil qilamiz deb o'ylayman.

Endi to'ldiruvchiga kelsak. Bilamizki, to'ldiruvchi ham ikkinchi darajali bo'lak hisoblanadi va hol bilan bir mavqeda turadi. Ular gapni to'ldirib, u haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.

"To'ldiruvchi gapning fe'l bilan ifodalangan biror bo'lagiga bog'langan bo'lib, - uning ma'nosini to'ldirib keladi. Odatda, to'ldiruvchi kesim bilan bog'lanib, u to'g'risida qo'shimcha ma'lumot beradi. Gulni sevgan tikanni ham sevadi. Gulni so'zi to'ldiruvchidir, u kesim bilan bog'langan, chunki kesim fe'lning funksional (noaniq) shakli bo'lmish o'tgan zamon sifatdoshi bilan ifodalangan (sevgan). Betga aytganning zahri yo'q, gapida to'ldiruvchi aniloqlovchiga bog'lanib keladi, chunki aniloqlovchi (aytganning) sifatdosh bilan ifodalangan. Yoki erishilgan yutuqlar haqida so'zlashning aybi yo'q gapida to'ldiruvchi yana aniloqlovchi (so'zlashning) bilan bog'langan, chunki bu aniloqlovchi ham fe'lning noaniq shakli - harakat nomi bilan ifodalangan. To'ldiruvchi miqdor jihatdan kesim bilan ko'proq bog'lanib keladi."-deb berilgan Irisqulovning "Tilshunoslikka kirish" kitobida. Shundan kelib chiqadiki, to'ldiruvchi qisman so'z kengaytiradi, lekin ko'proq kesimga bog'lanib, gapda asosan gap kengaytiruvchisi vazifasida keladi deyolamiz.

Lekin, Ra'no Sayfullayevaning "O'zbek adabiy tili" kitobida: "To'ldiruvchi so'z kengaytiruvchisi, u gapning konstruktiv bo'laklari sirasiga-kirmaydi, balki gapdagi so'zlarning lug'aviy ma'nosini muayyanlashtiruvchi vosita sanaladi,"-deb berilgan. Bilamizki, to'ldiruvchi aniloqlovchi kabi boshqa gap bo'laklarining belgisini bildirib, faqat so'z kengaytirmaydi. Agar u faqat so'z kengaytirganda edi, xuddi aniloqlovchi singari gapda kesimlik shakllarisiz qo'llana olar edi. Masalan: "U a'lochi o'quvchi" deyolamiz. Lekin "U daftarga yoz" yoki "men kitobni o'qi" deb aytoilmaymiz. To'ldiruvchi kesimga to'g'ridan to'g'ri bog'langan holda, u ham gap kengaytiruvchisi hisoblanadi. Agar uni gap kengaytiruvchisi deb olmasak, holni ham bu maqomga ko'tarolmaymiz.

Bundan chiqdi, shunday xulosaga kelamizki, ega, hol, to'ldiruvchini gap kengaytiruvchisi deb olamiz. Aniloqlovchini va ba'zida to'ldiruvchini esa so'z kengaytiruvchisi hisoblaymiz. Bular, albatta, bizning qarashlarimiz. Agar ushbu fikrlarimiz e'tiborga olinib, tilshunosligimizdagi ba'zi tushunmovchiliklar kamaysa

hursand bo‘lardik. Zero til -milat taraqqiyotining asosi. Tilshunosligimiz qanchalik to‘g‘ri va aniq bo‘lsa, tilimiz ham tobora takomillashib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. R.R. Sayfullayeva "O‘zbek adabiy tili" kitobi.
2. M.T. Irisqulov "Tilshunoslikka kirish" kitobi.
3. Telegram sayt: @ziyouz.com
4. Telegram sayt: @azkurs.org